

AXSIKENT MEROSI: TARIX TA’LIMI VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO’NALISHI

Davronbayev Ibrohim Ne’matjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich magistranti

Tel: +99897 555 58 63

E-mail: ibrohimdavronbayev@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21044419>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining qadimiy poytaxti — Axsikent yodgorligining tarixiy ahamiyati, uning ta’lim jarayoni va turizmga integratsiyasi masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada mavjud ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda Axsikentni o‘quv dasturlariga kiritilishi, mahalliy tarixni o‘qitishda yodgorlikdan foydalanish usullari hamda Axsikentni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishning istiqbollari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, Farg‘ona vodiysi, arxeologik meros, tarix ta’limi, turizm, muzeylashtirish, mahalliy tarix.*

Abstract. *This article examines the historical significance of Akhsikent — the ancient capital of the Fergana Valley — and its integration into the educational process and tourism sector. Drawing on existing scholarly research, the article analyses the prospects of incorporating Akhsikent into school curricula, methods of using the site in the teaching of local history, and the possibilities of promoting it at the international level.*

Keywords: *Akhsikent, Fergana Valley, archaeological heritage, history education, tourism, museumification, local history.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются историческое значение древнего памятника Аксикент — столицы Ферганской долины, а также вопросы его интеграции в образовательный процесс и*

туристическую сферу. На основе имеющихся научных исследований анализируются возможности включения Аксикента в учебные программы, методы использования памятника при преподавании местной истории, а также перспективы его продвижения на международном уровне.

Ключевые слова: *Аксикент, Ферганская долина, археологическое наследие, историческое образование, туризм, музеефикация, местная история.*

Kirish

Tarix fanini o‘qitishda jonli tarixiy meros bilan bevosita muloqot — eng samarali pedagogik vositalardan biridir. O‘quvchi uchun kitobdagi tarixiy faktlar abstrakt bo‘lib qolishi mumkin, ammo haqiqiy arxeologik topilmani ko‘rish, yodgorlik hududida bo‘lish — bu bilimni hayotga yaqinlashtiradi, unga hissiy va intellektual jihat qo‘shadi. Aynan shu nuqtai nazardan Farg‘ona vodiysining eng yirik arxeologik yodgorliklaridan biri — Axsikent shahri xarobalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Axsikent — qadimgi va o‘rta asrlardagi Farg‘onaning ma‘muriy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan. U Sirdaryo bo‘yida, Marg‘ilon–Namangan yo‘li yoqasida, To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan bo‘lib, xalq orasida Eski Axsi nomi bilan ham tanilgan [1]. Ushbu yodgorlik nafaqat arxeologik jihatdan, balki ta’limiy va turistik jihatdan ham o‘ziga xos ulkan imkoniyat sifatida qaralishi lozim.

Axsikentning tarixiy qiymati va tadqiqotlar tarixi

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Axsikent miloddan avvalgi II asrda vujudga kelgan va qadimgi Dovon davlatining yirik shaharlaridan biri bo‘lgan. Miloddan avvalgi 103-yilda xitoy qo‘shinlari bu shaharni qirq kun davomida qamal qilgan. Arablar istilosi davrida (713-yildan boshlab) ham shahar yirik savdo-hunarmandchilik markazi sifatida ahamiyatini saqlab qolgan [2]. Somoniylar sulolasi davrida esa Axsikent (Axsi, Axsikat) Farg‘onaning poytaxtiga aylangan va IX–XII asrlardagi yozma manbalarda keng tilga olingan.

Ibn Xurdodbexning xabar berishicha, Farg‘ona — keng va boy viloyat bo‘lib, poytaxti Axsiket deb atalgan. Shaharda kuxandiz, shahristoni va rabot bo‘lgan; amir saroyi va qamoqxona kuxandizda, jome masjidi esa shahristonda joylashgan [3]. Bu ma’lumotlar shaharning murakkab urbanistik tuzilishga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Yodgorlikni arxeologik jihatdan o‘rganish 1885-yilda Sankt-Peterburg universiteti professori N. Veselovskiy rahbarligida boshlangan. Keyinchalik 1913-yilda I. Kaste, 1939-yilda professor M. Masson, 1960-yilda esa akademik Ya. G‘ulomov rahbarligida tadqiqotlar olib borilgan. 1979-yildan boshlab O‘zbekiston FA Arxeologiya instituti Farg‘ona ekspeditsiyasining maxsus bo‘limi A. Anorboyev rahbarligida muntazam qazishmalar o‘tkazgan [4].

Tadqiqotlar natijasida Axsikentning uchta hududiy jihatdan alohida, turli davrlarga tegishli shahar xarobalariga ega ekanligi aniqlangan: antik, mo‘g‘ullar istilosi avvalgi va temuriylar davri xarobalari [5]. Bu holat yodgorlikni stratigrafik va madaniy jihatdan ayniqsa qimmatli qiladi.

Axsikentnig hunarmandchilik va metallurgiya merosi

Arxeologik qazishmalar Axsikentning naqadar noyob ishlab chiqarish markazi bo‘lganini tasdiqlaydi. Shahriston hududida temirchilik va mischilik bilan bog‘liq maxsus kulolchilik parchalari — temir va mis eritilgan idishlar, hamda ustaxonalardan metallurgik pechlar topilgan [6]. Axsikentda IX–XIII asrlarga oid o‘nlab ming dona qoralik parchalaridan iborat tigel bo‘laklari topilgan bo‘lib, bu yerda yuqori sifatli po‘lat ishlab chiqarilganini ko‘rsatadi [7].

Britaniyalik arxeolog professor Rxern tadqiqotlariga ko‘ra, Axsikentda kaolin (oq gil)dan tayyorlangan issiqqa chidamli tigellarda 1300 darajaga qadar qizdiriladigan po‘lat eritilgan. Bu usulda olingan, so‘ngra mohirona zarb qilingan po‘lat g‘oyat mustahkam, egiluvchan va o‘ziga xos naqshli bo‘lgan. Taxminlarga ko‘ra, har yili savdo karvonlari Axsikentdan Buyuk Ipak yo‘li orqali o‘nlab tonna po‘lat va besh ming qilichni Damashqqa olib ketgan [8]. “Damashq po‘lati”

atamasi aslida po‘latning kelib chiqish joyi bilan emas, balki Damashqdagi qurol bozoriga nisbati bilan bog‘liq ekanligi haqida faraz ham mavjud.

Bundan tashqari, Axsikent IX–XII asrlarda sopol buyumlar ishlab chiqarishning yirik markazi ham hisoblangan. Samoniylar davriga oid Axsikent kulolchilik buyumlari o‘ziga xos kompozitsiyalari va rang-barangligi bilan e’tiborni tortadi. Shahristondagi xonadon kvartallarida terrakota o‘choqlar majmuasi ham topilgan bo‘lib, ular yuqori sifatli qoliplash va yaxshi pishirishni ko‘rsatadi. Shisha buyumlar ham ko‘plab topilgan — ular stol idishlari, va kimyoviy asboblarni o‘z ichiga oladi [9].

Bu meros — o‘quvchilar uchun beqiyos ta’limiy resursdir. IX–XII asrlar Axsikentning hunarmandchiligi, metallurgiyasi va savdo aloqalarini o‘rganish nafaqat mahalliy tarixni, balki O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq va Xitoy bilan bo‘lgan iqtisodiy-madaniy munosabatlarni tushunishga ham asos bo‘ladi.

Axsikentni ta’lim jarayoniga integratsiyasi

Tarixni o‘qitishda yodgorliklar yetarlicha foydalanilmaydi. Darsliklar Axsikent haqida qisqacha ma’lumot beradi-yu, ammo bu shaharning naqadar ulkan madaniy va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi to‘liq yoritilmaydi.

Mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, tarixni o‘qitishda milliy identifikatsiyani shakllantirish va xalqning tarixiy xotirasini saqlash muhim ahamiyatga ega [10]. Bu g‘oyani amaliyotga tatbiq etishning eng to‘g‘ri yo‘li — yodgorliklarni ta’lim jarayoniga organik ravishda kiritishdir.

Axsikentni ta’limdagi rolini kuchaytirishning bir necha yo‘nalishlari mavjud.

Birinchidan, tarix darslarida Axsikent materiallari keng qo‘llanilishi kerak. IX–XI sinflar uchun Farg‘ona vodiysi tarixi bo‘limida faqat umumiy Markaziy Osiyo tarixiga emas, aynan Axsikentning shahar tuzilishi, hunarmandchilik mahallalari va savdo yo‘llari haqidagi aniq ma’lumotlarga e’tibor qaratilishi lozim. Masalan, Ibn Xurdodbeh ma’lumotlari asosida shaharni qog‘ozda “rekonstruksiya

qilish” — kuxandiz, shahriston va rabotni chizib, har bir bo‘laknit vazifasini muhokama qilish — o‘quvchilarda juda chuqur tarixiy tasavvur hosil qiladi.

Ikkinchidan, “tarixiy immersiya” metodi bu yodgorlik uchun ayniqsa samarali. O‘quvchilarda tarixiy muhitni to‘liq his qilish uchun virtual texnologiyalar yoki bevosita yodgorlikka tashrif — VR yoki real ekskursiya orqali Axsikentning bozori, kulolchilik mahallasi yoki metallurgiya ustaxonasini ko‘rish imkonini berish mumkin [11]. Hozirda yodgorlik hududida muzey-qo‘riqxonada faoliyat olib bormoqda, bu imkoniyatni to‘la-to‘kis foydalanish lozim.

Uchinchidan, “tarixiy mozaika” va “tafakkur tarmog‘i” metodlari Axsikent mavzusida samarali qo‘llanilishi mumkin. Masalan, o‘quvchilarga Axsikentni Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davridagi taqdirini tarqoq faktlar shaklida berib, ularni mantiqiy ketma-ketlikka keltirish topshirilsa, tarixiy sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

Axsikent va turizm: ta’lim uchun platforma

Axsikentni xalqaro turistik yo‘nalishga aylantirishning pedagogik ahamiyati ham katta. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida Axsikent arxeologiya merosi ob‘ektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” 831-son qaror qabul qilingan.[12] Ushbu qaror asosida yodgorlikni muhofaza qilish va tadqiq etish boshqarmasi tashkil etilgan.

Axmedov J.Z.ning ta’kidlashicha, Axsikentni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish va uni xalqaro turizm yo‘nalishlariga kiritish — bugungi kunning dolzarb vazifasi [13]. Buning pedagogik o‘lchami ham mavjud: yodgorlikka keluvchi sayyohlar asosan o‘rta maktab va universitetdagi yosh avlodidir. Ular uchun yodgorlikda tashkil etiladigan ekskursiyalar, ta’limiy marshrutlar va interaktiv ko‘rgazmalar tarix fanini tiriltirib beradi.

Axsikentni turizm va ta’lim platformasiga aylantirish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlar zarur:

O‘quv ekskursiyalarini tizimga solish. Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlaridagi maktab o‘quvchilari uchun Axsikentni muntazam o‘quv ziyoratlari tashkil etilishi, bu ziyoratlar esa tarix fanining aniq mavzulari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Yodgorlik hududida ta’limiy infratuzilma yaratish. Xarobalar yonida qadimiy shahar tuzilishini, metallurgiya jarayonini va kulolchilikni ko‘rsatuvchi interaktiv stendlar, maket va ko‘rgazma zallari bugungi zaruriyatdir.

Mahalliy tarix mualliflari uchun metodik qo‘llanma. Axsikent haqida maktab fani doirasida qo‘llash mumkin bo‘lgan maxsus dars ishlanmalari — xaritalar, hujjatlar, topilmalar suratlarini o‘z ichiga oluvchi to‘plamlar tayyorlanishi lozim.

Xalqaro hamkorlik. Axsikentni xalqaro arxeologik-ta’limiy loyihalarga jalb etish — YUNESKO bilan hamkorlik, chet el universitetlari bilan qo‘shma tadqiqotlar — yodgorlikning jahon miqyosidagi nufuzini oshiradi.

Xulosa

Axsikent — nafaqat milliard qiymatli arxeologik yodgorlik, balki o‘quvchilarning tarixiy ongini shakllantirish, milliy g‘urur va vatanparvarlik hissini tarbiyalash uchun noyob pedagogik resursdir. Uning Somoniylar davrida Buyuk Ipak yo‘lidagi metallurgiya markazi sifatidagi roli, shahar madaniyati va hunarmandchiligining yuksak darajasi — bularning barchasi maktab tarix darslarini boyitishi, o‘quvchilarni haqiqiy tarixiy jarayonlarni his etishga chorlashi mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi nuqtai nazaridan Axsikentni ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi, yodgorlikka o‘quv ekskursiyalari tashkil etilishi, interaktiv va innovatsion metodlarning qo‘llanilishi — bularning barchasi O‘zbekiston tarixini o‘qitishning sifatini sezilarli darajada yuksaltiradi. Axsikentni turizm, ta’lim va targ‘ibotning yagona platformasiga aylantirish — bugungi ilm va davlat manfaatlarining tutashuv nuqtasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Й. Қадимги Фарғона сирлари. — Наманган: 1992. — Б.53.
2. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгоҳ (Ученые записки). — С. 124.
3. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгоҳ (Ученые записки). — С. 124.
4. 3 Ахмедов Ж.З. Ахсикент — уникальный памятник Ферганской долины // Этническая культура. — 2020. — № 1 (2). — С. 7.
5. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгоҳ (Ученые записки). — С. 127.
6. Ахмедов Ж.З. Ахсикент — уникальный памятник Ферганской долины // Этническая культура. — 2020. — № 1 (2). — С. 6.
7. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгоҳ (Ученые записки). — С. 131.
8. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгоҳ (Ученые записки). — С. 131.
9. 4 Образование и наука в XXI веке: халқаро илмий-таълимий электрон журнал. — № 63-3 (2-жилд). — Iyun 2025. — Б. 637.
10. 5 Давронбаев И.Н. O‘zbekiston tarixini o‘qitishda yangi metodik tavsiyalar // Научный импульс: халқаро илмий журнал. — № 29 (100), 1-қисм. — Январь 2025. — Б. 195.
11. Давронбаев И.Н. O‘zbekiston tarixini o‘qitishda yangi metodik tavsiyalar // Научный импульс: халқаро илмий журнал. — № 29 (100), 1-қисм. — Январь 2025. — Б. 197.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida “Axsikent” arxeologiya merosi obyektni muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 831-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.10.2017-y.,

<https://lex.uz/docs/-3382160> Elektron resurs: <https://lex.uz/docs/3386966>
[Murojaat qilingan sana: 13.06.2026].

13. Ахмедов Ж.З. Ахсикент — уникальный памятник Ферганской долины // Этническая культура. — 2020. — № 1 (2). — С. 8.

14. Davronbayev I.N. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda innovatsion metodlar: o‘quvchilar faolligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-metodologik asoslari // Modern Education and Development. – 2026. – Vol. 46. – No. 6. – P. 355–366.